

HINDISTONDA ADVOKATLIK INSTITUTINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Majidov Muhammadqodir Xurshedzoda

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

majidovmuhammadqodir10012000@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kunning davr talablaridan biri sifatida advokaturani jadal rivojlantirish va huquqiy himoya sohasida eng muhim haqiqiy mustaqil institutga aylantirish borasidagi harakatlar jadal olib borilmoqda. Advokatura O‘zbekiston Respublikasidagi eng muhim institutlardan biri va huquqiy davlat tizimining elementi bo‘lib, usiz jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash ilojsizdir. Biroq, O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutining rivojlanish darajasi ilg‘or huquqiy davlatlarda bo‘lgani kabi yuqori darajada ko‘tarilgani yo‘q. Ushbu maqolada biz Hindistonda advokatlik institutining o‘ziga xos jihatlari o‘rganish asnosida milliy qonunchiligimizga tegishli takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: *Advokat, advokatura, advokatura instituti, Advokatlar kengashi, advokatlik maqomi, advokatlarning huquqlari, javobgarligi.*

ABSTRACT

As one of the requirements of today’s times, efforts are being made to rapidly develop the bar and turn it into the most important real independent institution in the field of legal protection. Advocacy is one of the most important institutions in the Republic of Uzbekistan and an element of the legal state system, without which it is impossible to effectively protect the rights, freedoms and legal interests of individuals and legal entities. However, the level of development of the bar institute in the Republic of Uzbekistan has not been as high as in advanced legal countries. In this article, we have explored the unique aspects of the Indian Bar Association and made suggestions for our national legislation.

Keywords: *Advocate, Bar Association, Bar Institute, Bar Council, Bar Status, Rights and Obligations of Advocates.*

I. Kirish.

Advokat – insonlarning huquqlarini himoya qiluvchi va ularning buzilgan huquqlarini tiklashga ko‘maklashuvchi shaxsdir. «Advokatura»¹ tushunchasi qadimda paydo bo‘lgan bo‘lib, lotin tilida «advocatus» so‘zi sudda ish yurituvchi, himoyani amalga oshiruvchi ma‘nosini anglatadi. Demak, ushbu birgina so‘zdan shuni

¹ <https://zenodo.org/records/8013664>

tushinishimiz mumkinki, advokat deyilganda shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklashga, ularni sudda himoya qilishga ko'maklashuvchi shaxslar anglashiladi.

Advokatura – huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmasi. **Advokatlik faoliyati** deyilganda, qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularga ko'rsatiladigan yuqori malakali yuridik yordam tushuniladi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda advokatlik faoliyati, advokatura tuzilmalarining faoliyati taraqqiy etib, eng obro'li va daromadli faoliyat turlaridan biri hisoblangan advokatura sohasining yurtimizdagi ahvoriga ijobiy baho berib bo'lmaydi. Ammo, bu sohani tizimli va tartibli tahlil qilish orqali kerakli islohotlarni o'tkazish zarur. Bu borada advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun talab etiladigan talablarni soddalashtirish va liberallashtirish lozim. Advokatning huquq va erkinliklari yanada ko'paytirilishi va unga erkin faoliyat yuritish kafolatlari berilishi kerak. Hozirgi kunda prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"da ham yurtimizda advokatura sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Pirovard maqsad esa sud-huquq tizimining uzviy bo'lagi hisoblangan advokatura sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun-mohiyati, maqsadi eng avvalo, advokaturaning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish, yoshlarni advokatlik kasbiga qiziqishini oshirib, kuchli, mustaqil advokatura tizimini barpo etish orqali shaxsning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratishga qaratilgan. Bu natijalarga erishish uchun doimiy ravishda ilmiy izlanish, xorijiy rivojlangan tajribani muntazam tahlil qilib, kerakli yutuqlarni milliy qonunchiligimizga joriy qilish zarur, Shuning uchun, ushbu maqolada Hindistonda advokaturaga oid qonunchiligini tahlil qilib, undagi ilg'or tajribalarni va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga taklif qilishga harakat qildik.

II. Metodologiya

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda biz huquqiy tadqiqotni amalga oshirishning bir qancha usullaridan foydalandik. Xususan, tadqiqot ilmiy va sof yuridik tadqiqot usullarining o'zaro birlashgan shaklida amalga oshirildi. Xalqaro huquq normalari, O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunchilik hujjatlari, shuningdek tadqiqot mavzusiga doir boshqa amaliy materiallar manba bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar mutaxassislari hamda olimlari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va xulosalardan, xususan, advokatura instituti oid qarashlaridan, shuningdek, rasmiy-yuridik, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, qiyosiy-tipologik va tarixiy-huquqiy tahlil metodlaridan keng foydalanildi.

III. Natijalar

✓ Hindistonda advokatlik institutining o'ziga xos jihatlarini o'rganish asnosida quyidagi natijalarga erishamiz:

✓ Hindistonda advokatura va advokatlarning paydo bo'lishi tarixi o'rganish asnosida milliy qonunchiligimiz uchun kerakli xulosa va takliflar berish;

✓ Hindistonda advokatura va advokatlik faoliyati tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarni tahlil qilish orqali ilg'or tajribaga ega bo'lish;

✓ Hindistonda advokatura sohasini muvofiqlashtiruvchi organlarni tahlil qilish hamda tahlil natijasi bo'yicha milliy qonunchiligimizga xulosa va takliflar berish;

✓ Hindistonda advokatlik maqomiga ega bo'lish tartibini o'rganish va bu borada tegishli tajribaga ega bo'lish;

✓ Hindistonda advokatlarning huquqlari va majburiyatlarini ko'rib chiqish va o'rganish natijasi bo'yicha milliy qonunchiligimizga takliflar kiritish;

✓ Hindistonda advokatlarning uchun belgilab qo'yilgan javobgarlik va kafolatlarni tahlil qilish hamda erishilgan tajribani milliy qonunchiligimiz uchun joriy qilish bo'yicha takliflar kiritish.

IV. Muhokama

Advokatura institutining rivojlanishi:

Hindistonda advokatura va advokatlarning paydo bo'lishi tarixi asrlar davomida huquqiy tizimlar va institutlarning rivojlanishi bilan chuqur ildiz otgan bo'lib, bu bir nechta bosqichlardan iboratdir.

Qadimgi Hindistonda huquqiy tamoyillar birinchi navbatda "Dxarmashastra" – qadimgi huquqiy va axloqiy risolalar to'plamidan olingan. Chunki, huquqiy masalalar ko'pincha diniy va axloqiy mulohazalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu o'rinda, qirol yoki hukmron hokimiyatning huquqiy maslahat berish va nizolarni hal qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan maslahatchilari bo'lgan. Bu shaxslar ko'pincha huquqiy va axloqiy masalalarni yaxshi bilishgan. Shuningdek, Hindistondagi advokatlik kasbining ildizlarini Manusmriti va Arthashastra kabi qadimgi huquq tizimlarida topish mumkin. Bu davrda olimlar va huquqshunolar hukmdorlarga maslahat berish va huquqiy tamoyillarni sharhlashda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Islom dini ta'siri: Islom dini boshqaruvining paydo bo'lishi bilan islom huquqiy tamoyillari huquqiy manzaraga ta'sir qila boshladi. Qozilar va muftiylar islom qonunlari bilan tartibga solinadigan masalalarda advokat va sudya bo'lib xizmat qilganlar.

Britaniya mustamlakachilik davri: O'n yettinchi asrda Hindistonda o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan Britaniyaning Sharqiy Hindiston kompaniyasi ingliz huquqi

va yuridik institutlarini joriy qildi. Bu davr Hindistonda zamonaviy advokatlik kasbini sezilarli darajada shakllantirdi. 1774-yilda Kalkutta Oliy sudining tashkil etilishi hal qiluvchi voqea bo'ldi. Natijada, ingliz umumiy huquqi hind huquqiy tuzilishining asosiga aylandi. 1862-yilda hindistonning boshqa hududlarida ham Kalkutta Oliy sudining tashkil etilishi huquq tizimini, advokaturaga bo'lgan ehtiyojni yanada rivojlanishida muhim qadam bo'ldi.¹

Mustaqillikdan keyingi davr: 1950-yilda qabul qilingan Hindiston Konstitutsiyasi hamda 1961-yildagi "Advokatlar to'g'risida"gi qonuni huquq tizimining asosini yaratdi. Unda advokatlarning muhimligi, ularning adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashdagi roli e'tirof etildi. Mustaqillikdan so'ng yuridik ta'lim muassasalarining sezilarli darajada kengayishi kuzatildi, bu esa advokatlik kasbiga kirishayotgan shaxslar sonining ko'payishiga olib keldi. Hindistondagi advokatlar bugungi kunda fuqarolik, jinoiy, konstitutsiyaviy va korporativ huquq kabi turli sohalarda ixtisoslashgan.

Xulosa, Hindistondagi advokatlar tarixi mahalliy huquqiy an'analar, islom dini ta'siri va Britaniya mustamlakachiligining ta'sirini o'zida aks ettiradi. Advokatlik kasbi vaqt o'tishi bilan boshqaruv, huquqiy tizimlar va jamiyat ehtiyojlaridagi o'zgarishlarga moslashib, rivojlanib bormoqda.

Advokatura faoliyati bo'yicha qonunchilik:

Hindistonda advokatura va advokatlik faoliyati turli qonunlar va qoidalar bilan tartibga solinadi. Ulardan birinchisi, Kalkutta Oliy sudi tomonidan ishlab chiqilgan 1775-yildagi "Muqaddas Qonun"ga muvofiq yuridik amaliyotga ruxsat berilgan. Keyinchalik, 1793-yilda "Bengalni tartibga solish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi kompaniya sudlarida yuridik amaliyotchilarni yollash va xatti-harakatlarini tartibga solish va nazorat qilish edi. Shundan so'ng 1879-yildagi "Advokatlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, u advokatlarning huquqlarini kengaytirdi. 1923-yilda Britaniya hukumati Hindiston Advokatlar qo'mitasini tashkil qildi. Ushbu qo'mita hind advokaturasini tashkil etish va advokatlik kasbidagi bir qancha kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqqan. Hindiston Advokatlar qo'mitasining tavsiyalari natijasida 1926-yilgi "Advokatlar Kengashi to'g'risida"gi qonuni deb nomlangan yangi qonun qabul qilindi. Ammo unda qo'mita tavsiyalarining faqat bir qismi aks etgan edi. U butun Hindistonni qamrab oladigan Advokatlar kengashini yaratolmadi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, Hindiston hukumati 1953 yilda "Butun Hindiston Advokatlar qo'mitasi"ni faoliyatini tashkil etdi. Ushbu qo'mita turli takliflarni ishlab chiqdi va bu takliflar har tomonlama

¹ <https://legalserviceindia.com/legal/article-2374-conduct-duties-of-advocate.html>

o'rganib chiqilgach, Hindiston hukumatiga bir qator tavsiyalar taqdim etdi. "Butun Hindiston Advokatlar qo'mitasi" tomonidan taqdim etilgan hisobot natijasida 1961-yilda parlament "Advokatlar to'g'risida"gi qonuni qabul qildi.

Advokatura va advokatlar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy asos 1961-yildagi "Advokatlar to'g'risida"gi qonundir. 1961-yil 19-mayda qabul qilingan ushbu Qonun 1961-yil 1-dekabrda kuchga kirdi va shundan so'ng u advokatlik amaliyotini tartibga solish va advokatlar o'rtasida axloqiy me'yorlarni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynab kelmoqda.

Mazkur qonunning asosiy maqsadi butun mamlakat bo'ylab advokatlik faoliyatida bir xillikni ta'minlashdir. Ushbu qonun kuchga kirgunga qadar turli shtatlarda advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi turli qonun va qoidalar mavjud edi. Qonun Hindiston Advokatlar Kengashining milliy darajadagi advokatlar uchun eng yuqori tartibga soluvchi organ sifatida tashkil etilishiga olib keldi.

Qonunda advokat sifatida Advokatlar kengashi ro'yxatidan o'tish uchun talablar, advokat sifatida ro'yxatdan o'tishni istagan nomzodlar tomonidan imtihondan o'tish shartlari, advokatlarning huquqlari, vazifalari, majburiyatlari va javobgarligi, advokatlik maqomi, huquqiy ta'lim standartlari to'g'risida, Advokatlar kengashi to'g'risida va boshqa ko'plab advokatlik faoliyatiga oid normalar belgilanib o'tilgan.

Hindistonda advokatura va advokatlik faoliyati tartibga soluvchi keying huquqiy asos 2022-yil yanvar oyida yangi tahrirda qabul qilingan Hindiston Advokatlar Kengashining maxsus qoidalaridir. Hindiston Advokatlar kengashi qoidalari bo'yicha eng dolzarb va aniq ma'lumotlarni olish uchun siz Hindiston Advokatlar kengashining rasmiy veb-saytiga murojaat qilishingiz yoki to'g'ridan-to'g'ri Advokatlar Kengashi bilan bog'lanishingiz mumkin. Bundan tashqari, huquqshunoslar va advokatlar so'nggi qoidalarni Hindiston Advokatlar kengashi tomonidan taqdim etilgan nashrlarda topishlari mumkin. Mazkur qoidalarda asosan quyidagilar belgilaniladi:

✓ advokatlardan kutilayotgan kasbiy xulq-atvor standartlarini belgilovchi qoidalar;

✓ advokatlarni ro'yxatdan o'tishlari bo'yicha ko'rsatmalar va talablar, shu jumladan ta'lim malakasi va imtihonlari;

✓ advokatlar o'z faoliyati davomida amal qilishlari kerak bo'lgan axloqiy me'yorlar va tamoyillar;

✓ kasbiy xulq-atvorni buzganlik uchun advokatlarga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish va yuritish tartibi;

✓ advokatlarning advokatlik faoliyatidagi huquqlari, imtiyozlari va majburiyatlari batafsil tavsiflangan qoidalar;

✓ huquqiy ta'lim bilan bog'liq qoidalar, shu jumladan Hindistondan tashqarida olingan malakalarni tan olish;

✓ Katta advokatlarni tayinlash va imtiyozlarga oid qoidalar.

Advokatura sohasini muvofiqlantiruvchi organlar:

Hindistonda advokatlarning yuridik kasbi turli xil muvofiqlashtiruvchi organlar, birinchi navbatda Hindiston advokatlar kengashi va mahallaiy darajasidagi shtat advokatlar kengashlari tomonidan tartibga solinadi. Ushbu organlar huquqiy ta'lim standartlarini belgilash, kasbiy xulq-atvorni saqlash, advokatlarni ro'yxatga olish va intizomiy javobgarlikka tortish jarayonlarini nazorat qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu organlarni birma-bir ko'rib chiqishimiz mumkin.

Hindiston advokatlar kengashi 1961-yildagi "Advokatlar to'g'risida"gi qonunning 4-bo'limiga binoan tashkil etilgan qonuniy organ bo'lib, Hindistonda yuridik amaliyot va yuridik ta'limni tartibga soladi. Uning a'zolari Hindistondagi advokatlar orasidan saylanadi. U kasbiy xulq-atvor standartlarini, odob-axloq qoidalarini belgilaydi va advokatura ustidan intizomiy yurisdiksiyani amalga oshiradi. Shuningdek, u yuridik ta'lim standartlarini belgilaydi.

Uning vazifalari quyidagilar:

- advokatlarning kasbiy xulq-atvori va odob-axloq qoidalarini ishlab chiqish;
- intizom qo'mitalari faoliyatining tartibni belgilash;
- advokatlarning huquqlari, imtiyozlari va manfaatlarini himoya qilish;
- huquqiy islohotlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- mahalliy advokatlar kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan har qanday masalani ko'rib chiqish va hal qilish;
- huquqiy ta'limni rivojlantirish va huquqiy ta'lim standartlarini ishlab chiqish;
- taniqli huquqshunoslar tomonidan huquqiy mavzular bo'yicha seminarlar o'tkazish va yuridik ahamiyatga ega jurnal va maqolalarni nashr etish;
- kam ta'minlangan oilalarga huquqiy yordam ko'rsatishni tashkil etish;
- xorijda olingan yuridik malakalarni tan olinishini belgilash;
- advokatlar kengashining mablag'larini boshqarish;

"Advokatlar to'g'risidagi qonunga ko'ra, Hindiston advokatlar kengashi har bir shtat advokatlar kengashidan saylangan a'zolardan va doimiy a'zo hisoblanadigan Hindiston advokatlar boshlig'i va Hindiston bosh advokatidan iboratdir. Kengash o'z a'zolari orasidan ikki yil muddatga o'z raisi va rais o'rinbosarini saylaydi.

Hindiston advokatlar kengashida turli qo'mitalar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

Ijroiya qo'mitasi: Bu qo'mita mablag'larni boshqarish, xodimlarning ishlari, hisob-kitoblar, ishlarni taqsimlash, kengash ishlarini boshqarish, audit, kutubxona va yuridik nashrlar bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanadi.

Huquqiy ta'lim qo'mitasi: Bu qo'mita yuridik ta'lim bilan bog'liq masalalar bo'yicha Kengashga tavsiyalar beradi va yuridik ta'lim standartlarini belgilaydi,

yuridik universitetlarga tashrif buyuradi va ularning faoliyatini tekshiradi. Hindistonda huquqshunoslik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan chet ellik advokatlarni ro'yxatdan o'tkazadi.

Tartib-intizom qo'mitasi: Bu qo'mita fuqarolar tomonidan bildirilgan advokatlarning kasbiy huquqbuzarliklari yuzasidan shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

Advokatlar ijtimoiy-himoyasi assotsiatsiyasi: Ushbu qo'mita yangi faoliyatga kirishgan advokatlarga (3 yil to'lmagan) ijtimoiy jamg'armalar hisobidan mablag'lar berishi mumkin.

Yuridik yordam qo'mitasi: Yuridik yordam qo'mitasi yuridik yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlariga huquqiy yordam ko'rsatadi.

Qurilish ishlari qo'mitasi: Qurilish ishlari qo'mitasi Kengash uchun ofislarni tashkil qilish uchun mas'uldir.¹

Hindiston advokatlar kengashi har 3 yilda advokatlarning advokatlik bilan shug'ullanish qobiliyatini imtihondan o'tkazadi. Imtihondan yetarli ballni qo'lga kirita olmagan advokatlarning litsenziyasi to'xtatiladi va 3 oydan keyin qayta imtihon topshiradi. Ikkinchi imtihondan yetarli ballni qo'lga kirita olmagan advokatlarning litsenziyasi 1 yilga bekor qilinadi va majburiy 1 oylik malaka oshirish kurslariga yoziladi. Keying yil ham shu protsidura takrorlanadi.²

Hindistondagi har bir shtatda o'z shtat advokatlik kengashi mavjud bo'lib, u shtat ichidagi advokatlik kasbini tartibga solish uchun mas'uldir. Uning vazifasi shtat ichida advokatlarni ro'yxatlarni ro'yxatdan o'tkazish, kasbiy huquqbuzarlik uchun advokatlarni izntzomiy jazo choralarini ko'rish, huquqiy ta'limni rivojlantirish va mahalliy yuridik institutlar uchun standartlarni o'rnatishdan iborat.

Mahalliy advokatlar uyushmalari – tartibga soluvchi xususiyatga ega bo'lmagan tuman yoki shahar darajasida faoliyat yurituvchi organ bo'lib, mahalliy muammolarni hal qilish, bu borada seminar va tadbirlar tashkil etish, shuningdek advokatlarning professional birdamligini rivojlantirishga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilotidir.

Advokatlar farovonlik fondi – ba'zi shtatlarda muhtoj advokatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun Advokatlar farovonlik fondlari tashkil etiladi. Ushbu fondlar, asosan, mahalliy hukumat tomonidan moliyalashtiriladi.

Davlat yuridik xizmatlari kabi organlar yordamga muhtoj aholilarga huquqiy yordam ko'rsatish uchun advokatlar bilan hamkorlikda ishlaydi. **Yuridik yordam ko'rsatish organlari** advokat yollashga imkoniyati bo'lmagan shaxslarning odil

¹ "Committees of Bar Council of India". Bar Council of India. Archived from the original on 28 March 2014. Retrieved 4 June 2014.

² "bar council rules". Archived from the original on 30 October 2012. Retrieved 3 February 2017.

sudlovga kirishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hindistonda jamiyatning nochor qatlamlariga huquqiy yordam ko'rsatish uchun turli yuridik yordam organlari va tashkilotlari tashkil etilgan. Bugungi kunda, yuridik yordam ko'rsatish organlari yuridik xizmatlarni qulay, hamyonbop va ular eng muhtojlar uchun xizmat qilish ustida ishlamoqda. Hindistondagi yuridik yordam organlari adolat, tenglik va qonun ustuvorligi tamoyillarini ilgari surishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa, Hindistonda advokatlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi eng asosiy organ Hindiston advokatlar kengashi bo'lsada, unga a'zolik ixtiyoriy bo'lib, faqatgina a'zo bo'lganlarga sudda advokat sifatida faoliyat yurita oladi. Biroq, bundan tashqari bu sohada yuqorida nomi keltirilgan advokatlarga ko'maklashuvchi boshqa ko'plab organ va tashkilotlar mavjud bo'lib, bular advokatlar manfaatini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Advokatlik maqomi:

Hindistonda advokatlik maqomiga ega bo'lish 1961-yildagi "Advokatlar to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solingan bo'lib, muayyan tartib-taomilni o'z ichiga oladi. Quyida mazkur bosqichlarni birma-bir keltirishimiz mumkin:

Birinchi bosqich. Universitetda huquqshunoslik bo'yicha bakalavr darajasini tamomlash lozim. Bunda, huquqshunoslik bo'yicha bakalavr dasturi odatda boshqa oliy ta'lim muassasasini bitirganlar uchun uch yil va o'rta ta'limni tugatganlar uchun besh yil davom etadi.

Ikkinchi bosqich. Bakalavr dasturini muvaffaqiyatli yakunlangandan so'ng, mazkur bakalavr diplomi Hindiston advokatlar kengashi tomonidan tan olinishini ta'minlash lozim. Hindistonda joylashgan oliy ta'lim muassasalari tomonidan berilgan diplom bevosita tan olinadi, lekin xorijiy mamlakatlardan huquqshunoslik bo'yicha diplom olgan shaxs Hindiston advokatlar kengashi tomonidan imtihon qilinadi.

Uchinchi bosqich. Advokatlikka nomzod shaxs bakalavr darajasini tugatganidan so'ng, Hindiston advokatlar kengashining tumanlardagi bo'limlarida imtihondan o'tishlari kerak bo'ladi. Hindiston advokatlar kengashining tumanlardagi bo'limlarida tegishli komissiya nomzodlarning huquq bo'yicha asosiy bilimlarini baholaydi.

To'rtinchi bosqich. Nomzod Advokatlar kengashi imtihonidan o'tganidan so'ng, advokat sifatida ro'yxatdan o'tish huquqiga ega bo'ladi. Bunda, tegishli advokatlar kengashi "**amaliyot guvohnomasi**"ni beradi. Bu guvohnoma bilan huquqshunoslar to'siqsiz sudlarda yoki boshqa organlarda advokat sifatida fuqarolarni huquqini himoya qila oladi. Ushbu faoliyatni advokat sifatida mustaqil ishlash bilan yo biron bir advokatlik tashkilotlariga qo'shilish bilan, yoki "**katta advokat**" maqomini olgan tajribali advokatlar bilan olib borishi mumkin. Istesno tariqasida, Hindistonning

ba'zi shtatlari bakalavr dasturini tamomlashdan oldin yoki keyin majburiy amaliyot yoki ma'lum bir stajirovka davrini talab qilishi mumkin.

Lekin, Hindiston Oliy sudida advokat sifatida ishtirok etish uchun “**amaliyot guvohnomasi**”dan tashqari Oliy sud tomonidan berilgan maxsus guvohnoma ham kerak. Ushbu guvohnomaga talabgor advokatlar Oliy sud tomonidan o'tkaziladigan malaka imtihonidan tegishli tartibda o'tishlari zarur bo'ladi. Shuningdek, Oliy suddagi barcha protseslarda advokatlarning odob-axloq qoidalari Hindiston Oliy sudi tomonidan tasdiqlangan qoidalar bo'yicha belgilanadi.

Advokatlarning huquqlari va majburiyatlari:

Hindistondagi advokatlar, boshqa ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi, qonun tomonidan tan olingan va himoya qilinadigan o'ziga xos huquq va imtiyozlarga ega. Bu huquqlar 1961-yildagi “Advokatlar to'g'risida”gi qonunda ko'rsatilgan. Quyida advokatlarning asosiy **huquqlaridan** ba'zilari keltirish mumkin:

1. Advokatlar Hindistonning barcha sudlarida, jumladan, Oliy sudida, quyi sudlarida advokatlik qilish huquqiga ega.

2. Advokatlar mijozining himoyasi uchun Hindistondagi har qanday tashkilot yoki hokimiyat organlariga qarshi faoliyat olib borishi mumkin. Tashkilotlar va hokimiyat organlariga mijozining himoyasi uchun kelish huquqi advokatlar uchun yuridik amaliyot ko'lamini kengaytirib, ularga an'anaviy sud jarayonlaridan tashqari huquqning turli sohalarida qatnashish imkonini beradi.

3. Advokatlar Hindistonning butun hududida faoliyat yuritish huquqiga ega. Bunda, advokat Advokatlar kengashiga ro'yxatdan o'tgandan so'ng, faoliyat yuritish huquqi ma'lum bir shtat yoki mintaqa bilan cheklanmaydi. Advokatlar mamlakatning istalgan hududida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Shuningdek, bu mijozlarga mamlakatning istalgan hududidan advokatlarni sud jarayonlarida vakillik qilish uchun tanlash erkinligini beradi.

4. Advokatlar yuridik xizmatlari uchun haq olish huquqiga ega. To'lov tartibi odatda advokat va mijoz o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida belgilanadi.

5. Advokatlar huquqiy tadqiqotlar va ishlarni tayyorlashda davlat kutubxonalari, huquqiy ma'lumotlar bazalari va boshqa yuridik resurslardan imtiyozli foydalanishi mumkin. Ko'pgina huquqshunoslikka ixtisoslashgan maktablar, advokatlar assotsiatsiyasi va yuridik institutlarda advokatlar tadqiqot maqsadlarida foydalanishlari mumkin bo'lgan maxsus kutubxonalar mavjud.

6. Advokatlar kasbiy odob-axloq qoidalari va xulq-atvor standartlaridan foydalanish huquqiga ega. Ular mijozlar, boshqa hamkasblari va sudlar tomonidan ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish huquqiga ega.

7. Advokatlar o'zlariga nisbatan qo'zg'atilgan intizomiy ishda o'zlarini himoya qilish huquqiga ega. Shuningdek, advokatlar intizomiy ish yuritishda boshqa advokat tomonidan himoyalani huquqiga ega.

8. Advokatlar malaka oshirish, shu jumladan uzluksiz yuridik ta'lim dasturlari va seminarlarda qatnashish huquqiga ega.

9. Advokatlar o'z faoliyati yoki kasbiy xulq-atvoriga nisbatan har qanday noqonuniy cheklovlarga e'tiroz bildirish huquqiga ega.

10. Advokatlar sudni boykot qilish huquqiga ega.

11. Advokatlar har qanday sud majlisiga kirish va jarayonni kuzatish huquqiga ega.¹

Hindistonda advokatlarning **majburiyatlari** quyidagilar:

Sud oldidagi majburiyatlari. Advokatlar sudning qadr-qimmati va halolligini himoya qiladigan tarzda harakat qilishlari, odil sudlovni amalga oshirishda sudga yordam berishlari kerak. Advokatlardan sud bilan munosabatlarda samimiy, rostgo'y va halol bo'lishlari talab qilinadi. Bu fakt va dalillarni buzib ko'rsatmasdan yoki yashirmasdan taqdim etishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, advokatlar ishonchli va to'g'ri dalillarni taqdim etishlari lozim. Ular sudni chalg'itmasliklari yoki qalbaki dalillarni keltirmasliklari kerak. Shu bilan birga, advokatlar sudga, uning mansabdor shaxslariga va sudyalarga hurmat ko'rsatishi kerak, ya'ni sud bilan o'zaro munosabatlarida odob, xushmuomalalik va professionallikni saqlashi kerak.

Mijoz oldidagi majburiyatlari:

1. Advokatlar o'z mijozlariga sadoqatli bo'lishlari shart. Bu mijoz manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish va uning manfaatlarini ko'zlab harakat qilish demakdir.

2. Advokatlar o'z mijozlaridan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashlari shart.

3. Advokatlar sifatli yuridik xizmatni ko'rsatishi kerak. Bu mijozning ishini hal qilish uchun zarur huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni yoki kerak bo'lganda boshqa vakolatli advokatlar bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi.

4. Advokatlar o'z mijozlariga halol va samimiy xizmat ko'rsatishi kerak. Ular mijozning ishining kuchli va zaif tomonlari haqida aniq ma'lumot berishlari va noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar va va'dalar bermasligi kerak.

5. Advokatlar muayyan vaziyatlarda, masalan, mijoz noqonuniy harakat qilishni talab qilganda yoki moliyaviy majburiyatlarini bajarmaganda vakillikdan voz kechishi mumkin.

6. Advokatlik to'lovi ishning muvaffaqiyati uchun undirilmasligi kerak.

7. Advokat mijoziga ish natijasida undirib bergan mol-mulkni undan sotib olmasligi kerak.

8. Sud majlisida advokatga xos kiyimda bo'lish va bu kiyimni ommaviy joylarda kiyimasligi kerak.

9. Advokat sudya bilan qarindoshligi bo'lsa, sudda qatnashmasligi kerak.

10. Advokat o'z mijoz uchun kafil bo'la olmaydi.

¹ Rights of an Advocate under Advocates Act, 1961 (legalstudymaterial.com)

Advokatlarning javobgarligi va kafolatlari:

Tegishli tartibda “**amaliyot guvohnomasi**”ni olgan advokatlar 1961-yilda qabul qilingan “Advokatlar to‘g‘risida”gi qonunda ko‘rsatilgan professional xulq-atvor va advokatlik etikasi standartlariga rioya qilishlari kerak. Bunga rioya qilmaslik intizomiy jazoga olib kelishi mumkin. Intizomiy jazo turlariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh – advokatning xatti-harakati uchun norozilikning rasmiy ifodasidir. Bu intizomiy jazo unchalik jiddiy bo‘lmagan shakli.

Kechirim so‘rash – ba’zi hollarda Advokatlar kengashi tomonidan advokatdan jabrlanuvchi yoki sudga rasmiy uzr so‘rash talab qilinishi mumkin.

Jarima – xulq-atvor va advokatlik etikasi standartlariga rioya qilmaganligi uchun advokatlar jarimaga tortilishi mumkin. Jarima miqdori huquqbuzarlikning tabiati va og‘irligiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Kompensatsiya yoki tovon to‘lash – advokatdan advokatning noto‘g‘ri xatti-harakati tufayli zarar ko‘rgan taraf Advokatlar kengashi vositachiligida mazkur zararni qoplashni yoki tovon to‘lashni talab qilishi mumkin.

Faoliyatini vaqtincha cheklash – xulq-atvor va advokatlik etikasi standartlariga rioya qilmaganligi uchun advokatlar ma‘lum muddatga advokatlik faoliyatidan chetlashtirilishi mumkin. To‘xtatib turish vaqtida ularga advokatlik bilan shug‘ullanish yoki mijozlarga vakillik qilish taqiqlanadi.

Ro‘yxatga olishni rad qilish – advokatlar kengashi advokatni ro‘yxatga olishni rad qilishi mumkin, bu esa faoliyatini vaqtincha cheklashdan ko‘ra qattiqroq jazo turi hisoblanadi.

Debarment – advokatga ma‘lum bir sud, tribunal yoki yurisdiksiyada faoliyat yuritishni taqiqlashni o‘z ichiga oladi.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish – bu eng qattiq intizomiy jazo hisoblanadi. Bu advokatning advokatlik bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum bo‘lishini anglatadi.

Majburiy nafaqaga chiqarish – ayrim hollarda Advokatlar kengashi jiddiy kasbiy huquqbuzarlik sodir etgan advokatlarni majburiy nafaqaga chiqarishni tavsiya qilishi yoki belgilashi mumkin.¹

Shuni ta’kidlash kerakki, muayyan intizomiy jazo choralari xulq-atvor va advokatlik etikasi standartlariga rioya qilmaganlikning tabiati va og‘irligiga qarab farq qilishi mumkin. Intizomiy ishlar odatda Advokatlar kengashi tomonidan tuzilgan qo‘mitalar tomonidan olib boriladi va advokatlar ushbu jarayon davomida o‘z himoyalarni bildirish huquqiga ega. Intizomiy jazo choralarning maqsadi advokatlik

¹ [Conduct/Duties of Advocate \(legalserviceindia.com\)](http://legalserviceindia.com)

kasbining yaxlitligini saqlash va Advokatlar to'g'risidagi qonunda belgilangan kasbiy xulq-atvor me'yorlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Hindistonda advokatlarga odil sudlovni samarali amalga oshirishga ko'maklashish hamda advokatlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun muayyan maxsus kafolatlar va imtiyozlar berilgan. Ushbu kafolatlar 1961-yildagi Advokatlar to'g'risidagi qonunda va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan. Quyida ular bilan tanishishimiz mumkin.

“Advokatlar to'g'risida”gi qonunda advokatlar va advokatura tashkilotlarining mustaqilligi mustahkamlangan va advokatlarning advokatlik faoliyatiga boshqa organlar yoki hokimiyatlarning aralashuvi taqiqlangan.

Advokatlar sud protsessiga borayotganda, sud protsessida qatnashayotganda yoki suddan qaytayotganlarida hibsga olinmaslik immunitetiga ega. Ushbu himoya advokatlarga qo'rqmasdan o'z kasbiy burchlarini bajarishga imkon berish uchun mo'ljallangan. Shuni ta'kidlash kerakki, immunitet doimiy mutlaq emas va faqat sud faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan holatlarga taalluqlidir. Ya'ni, o'zlari qatnashayotgan sud ishi bo'yicha to mazkur ish tugamaguncha hibsga olinishlari mumkin emas. Advokatlar o'zlarining kasbiy majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan holda hibsga olinishlari mumkin.

Advokatlar advokatlar uyushmalarini va jamoat birlashmalarini erkin tuzish va ularda qatnashish huquqiga ega. Negaki, advokatlarning bunday kollegiyalari advokatlar manfaatlarini himoya qilish, advokatlik kasbining umumiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Advokatlar uzluksiz yuridik ta'lim va malaka oshirish faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Bu ularning huquqiy yangiliklardan xabardor bo'lishini va o'z bilimlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Xulosa, ushbu kafolatlar Hindistonda mustaqil, samarali va axloqiy yuridik kasbni rivojlantirishga qaratilgan. Ular odil sudlovni amalga oshirishga hissa qo'shadi va advokatlarga huquq tizimidagi muhim rolini bajarishda yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga tayanib qo'yidagi xulosalarga va takliflar berildi:

Birinchidan, Hindistonda advokatlar va advokaturaning paydo bo'lishi va rivojlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, *qadimgi Hindistonda* huquqiy tamoyillar birinchi navbatda qadimgi huquqiy va axloqiy risolalar to'plamidan olingan. Chunki, huquqiy masalalar ko'pincha diniy va axloqiy mulohazalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. **Islom dini** boshqaruvining paydo bo'lishi bilan esa, islom huquqiy tamoyillari huquqiy manzaraga ta'sir qila boshladi, ya'ni qozilar va muftiylar islom qonunlari bilan

tartibga solinadigan masalalarda advokat va sudya bo‘lib xizmat qilganlar. **Britaniya mustamlakachilik davrida** esa, ingliz huquqi va yuridik institutlarini joriy qildi. Bu davr Hindistonda zamonaviy advokatlik kasbini sezilarli darajada shakllantirdi. Natijada, ingliz umumiy huquqi hind huquqiy tuzilishining asosiga aylandi. **Mustaqillikdan keyingi davrda** esa, tarixiy tajribaga tayanib Hindiston 1950-yilda Hindiston Konstitutsiyasini hamda 1961-yildagi “Advokatlar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qildi va natijada, o‘zining advokatura sohasi bo‘icha huquq tizimining asosini yaratdi.

Xulosa, Hindistonda advokatlar va advokatura tarixi va mahalliy huquqiy an‘analari, islom dini ta‘sirini va Britaniya mustamlakachiligining ta‘sirini o‘zida aks ettiradi. Advokatlik kasbi vaqt o‘tishi bilan boshqaruv, huquqiy tizimlar va jamiyat ehtiyojlaridagi o‘zgarishlarga moslashib, rivojlanib bormoqda.

Taklif, O‘zbekistonda ham advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik qabul qilinayotganda, davlatning tarixi va mahalliy huquqiy an‘analari albatta hisobga olinishi kerak. Chnki, qonunlar har doim xalqning manfaatini aks ettirishi hamda xalqning xohish-irodasi, his-tuyg‘ularidan kelib chiqishi zarur deb hisoblayman. Mana shundagina, qonunlar birxil va yaxlit ishlashi ta‘minlanishi mumkin.

Ikkinchidan, Hindistonda turli davrlarda advokatura va advokatlik faoliyati turli qonunlar va qoidalar bilan tartibga solib kelingan. Masalan, Kalkutta Oliy sudi tomonidan ishlab chiqilgan 1775-yildagi “Muqaddas Qonun”, 1793-yilda “Bengalni tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun, 1879-yildagi “Advokatlar to‘g‘risida”gi qonun 1926-yilgi “Advokatlar Kengashi to‘g‘risida”gi qonun va boshqalar.

Mazkur turli qonunlar qabul qilingach, advokatura faoliyatida amaliyotda turli chalkashliklar va kollizion normalar paydo bo‘la boshlandi. Buning hammasi barcha qonun va qarorlarni yagona bir qonunga birlashtirishni taqozo etmoqda edi.

Natijada, 1953 yilda tashkil etilgan “Butun Hindiston Advokatlar qo‘mitasi” tomonidan ishlab chiqilgan takliflar asosida 1961-yil 19-mayda “Advokatlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va Qonun 1961-yil 1-dekabrda kuchga kirdi. Mazkur qonun yuqorida keltirilgan advokatura sohasidagi barcha qonun va qonunosti hujjatlarni birlashtirib o‘ziga aks ettirdi hamda boshqa barcha qonunlar o‘zini kuchini yo‘qotdi.

Xulosa, biron bir sohada uni tartibga soladigan yagona qonuni mavjud bo‘lmas ekan, ya‘ni mazkur soha turli qonun va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinar ekan, ushbu sohada amaliyotda turli chalkashliklar va kollizion normalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lar ekan.

Taklif, O‘zbekistonda ham advokatura sohasini tartibga soluvchi turli qonun va qonun osti hujjatlar mavjud, masalan, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun, “Advokatlik

faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonun va boshqalar. Advokatura huquq instituti sifatida, kundan kunga kengayib, mukammalashib bormoqda. Buning hammasi bu sohada ham yagona huquqiy normalar jamlanmasi, ya'ni **Advokatura kodeksini** ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Natijada, ushbu kodeksda advokatlarning barcha huquqlari oliy yuridik hujjat – **Qonun** bilan tartibga solinishiga olib keladi.

Uchinchidan, Hindistonda advokatlik maqomini egallash, ya'ni advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga doir litsenziyani olish uchun huquqshunoslik bo'yicha bakalavr darajasini tamomlash hamda 21 yoshga to'lgan bo'lish talab etiladi.

Biroq, O'zbekistonda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlardan so'raladigan kamida ikki yillik ish staji talabi bekor qilingan bo'lsada, asosiy ishdan ajralgan holdagi majburiy 3 oylik stajirovka hamon saqlanib qolmoqda.

Natijada, bu o'z-o'zidan sohada mutaxassislarni kelishiga ma'lum miqdorda to'sqinlik qilmoqda. Chunki, ushbu majburiy stajirovka davrida stajiyor-advokatga oylik belgilanishi qonunda nazarda tutilmagan. Ta'kidlash kerakki, hozirda advokaturaga ishga qabul qilish tartibini soddalashtirish, shuningdek advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga doir litsenziyani olish tartibini yengillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ma'lumot uchun: bugungi kunda respublikada 4 625 nafar advokat faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shundan 30 yoshgacha bo'lganlar soni atigi 51 nafar (1,10 foiz)ni tashkil qilmoqda.

Shu bois advokatura sohasiga yosh kadrlarni jalb qilish jarayonlarini soddalashtirish kerak.

Taklif, asosiy ishdan ajralgan holdagi majburiy 3 oylik stajirovka davrida stajiyor-advokatlar uchun davlat mablag'lari hisobidan ma'lum miqdorda oylik-maosh belgilash yoki stajirovka davrida 0,5 ish birligi (stavka) miqdorida ishlashiga ruxsat berilishi lozim.

To'rtinchidan, Hindistondagi advokatlar, boshqa ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi, qonun tomonidan belgilangan o'ziga xos javobgarliklarga ega. Javobgarliklarning barcha turlari yuqorida qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasida esa advokatlarga nisbatan kasb bo'yicha javobgarliklar tor doirada belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 14-moddasiga muvofiq advokatga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- ✓ ogohlantirish (malaka komissiyasining qaroriga asosan);
- ✓ litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish;
- ✓ litsenziyaning amal qilishini tugatish.

Natijada, advokatning sifatsiz xizmat ko'rsatgani uchun mijoziga yetkazilgan zararni qoplash masalasi ochiq qolib ketgan. Bu esa amaliyotda ba'zi bir advokatlar tomonidan mijozlarni ortiqcha sarson qilish hamda ularga moddiy zarar keltirish holatlarini vujudga keltirmoqda.

Taklif, Fuqarolarning manfaatini himoya qilish hamda sifatli va malakali advokatlik xizmatini joriy qilish uchun Hindiston tajribasiga muvofiq O'zbekistonda ham advokatlarga nisbatan Jarima va Kompensatsiya yoki tovon to'lash javobgarliklarini belgilash lozim.

Bunda, **jarima** – xulq-atvor va advokatlik etikasi standartlariga rioya qilmaganligi uchun advokatlarni jarimaga tortilish. Jarima miqdori huquqbuzarlikning tabiati va og'irligiga qarab o'zgarishi mumkin. **Kompensatsiya yoki tovon to'lash** – advokatdan advokatning noto'g'ri xatti-harakati tufayli zarar ko'rgan taraf tomonidan Advokatlar palatasi vositachiligida mazkur zararni qoplashni yoki tovon to'lashni talab qilinishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasidan. 20.12.2022.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

2.2. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni

2.3. 2022-yil 29-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

III. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

3.1. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019. -195 bet.

IV. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar:

4.1. Advocates are the preserver of civilization and the Court is the center of civilization, where Judges observes of the progress of civilization. [Law of Advocacy - Advocatetanmoy Law Library](#)

4.2. Conduct/Duties of Advocate By Niharika, [Conduct/Duties of Advocate \(legalserviceindia.com\)](#)

V. Foydalanilgan internet manbalari:

5.1. <https://www.scholar.google.com>

5.2. <https://www.lex.uz>

5.3. <https://www.norma.uz>